Materiallar to’plami · Conference Proceedings
”ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Oyazimxon Mutalipovna Jakbarova*
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ oyazimxonj@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda oliy ta’lim talabalari uchun boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi darslarida xususan 1-kurslarda innovatsion texnologiya va metodlardan samarali foydalanishning amaldagi holati va mavjud muammolari, dars jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv, didaktik o‘yin texnologiyalariga asoslangan didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Boshlang‘ich ta’lim, innovatsiya, didaktik o‘yinlar, texnologiya, faol ishtirok, ijtimoiy ko‘nikma, kommunikativ malaka, metodning moslashuvchanligi, pedagogik mahorat, umumiy pedagogika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743092

Kirish

Pedagogik jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy o‘yin asosidagi metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faollikka undaydi, darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. O‘yinlar orqali bolalar hayotiy tajriba orttiradi, ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi, bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda mustahkamlaydi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida o‘yin faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyoji hisoblanadi va ta’lim mazmunini ularning qiziqishlariga moslashtirish imkonini beradi.



O‘yin asosidagi metodlarning ta’limda keng qo‘llanilishi pedagogik samaradorlikni oshiradi, ya’ni o‘quvchilar tomonidan bilimning o‘zlashtirilish darajasi, faol ishtirok, ijtimoiy ko‘nikmalar va kommunikativ malakalar sezilarli darajada rivojlanadi. Shuningdek, bu usullar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini yangicha, interfaol va ijodiy yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, o‘yin asosidagi metodlarning nazariy asoslarini o‘rganish, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri va samaradorligini tahlil qilish mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli maqsadga yo‘naltirilgan, nazariy-metodologik, mazmunli jarayonga doir, tashkiliy va natijaviylik komponentlarini o‘zida aks ettirdi. Ushbu metodlar o‘quv jarayonini tizimli ravishda tashkil qilish va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Yuqoridagi vazifalarni to‘g‘ri va samarali tashkil etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan metodlardan kutilgan natijaga erishiladi, ya’ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy o‘yinlardan foydalanishi orqali o‘quvchilarni o‘z tasavvurlarini so‘zlar orqali faol qo‘llanilishiga erishiladi. Ushbu model pedagogik talablar asosida shakllantirilganligi bois maktab ta’limida fanlarni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Ushbu ta’limiy ma’lumotlar o‘rganilayotgan ta’lim jarayonining o‘zaro aloqa va bog‘liqlikda bo‘lgan barcha elementlarini, pedagogik mahorat fani va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta’limda o‘yinli metodlarni qo‘llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining uzviyligini ta’minlaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda amaliy ehtiyojlarning dinamik o‘zgarishlarini hisobga olishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, u innovatsion ta’lim sharoitida raqamli muhit talablariga mos keladigan zamonaviy o‘qitish vositalarini rivojlantirishga va ta’limda o‘yinli metodlardan foydalanish ijtimoiy ehtiyojlarining ortib borayotgan talablariga javob berishga xizmat qiladi. Metodlar kasbiy metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi texnologik yondashuvlarni ta’minlaydi. Metodning moslashuvchanligi, pedagogik mahorat va umumiy pedagogika fanini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida manfaatli natijalarga erishish mumkin bo‘lgan hollarda yangi taklif va tavsiyalarni hisobga olish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, kasbiy metodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida o‘zgarishlarni aks ettirishga yordam beradi. Metodning o‘suvchanligi, ta’limda o‘yinli metodlarni o‘quv jarayonida yangi axborot va innovatsion texnolgiyalarni tatbiq etish, mavjud vositalarga yangilarini qo‘shish, moslash yoki o‘zlashtirish

imkonini berishida ko‘rinadi. Metodning “komponent”li tuzilishga egaligi o‘quv jarayonida ishlab chiqiladigan yangi komponentlarning sonini oshishiga sharoit yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodlari yaxlit va ochiq tuzilgan. Ushbu metodlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi va belgilangan maqsadlarning natijalar bilan muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Metodning amaliyotga tatbiq qilinishi esa talabalarning ta’limda o‘yinli metodlardan foydalanishni faollashtirish va bu boradagi metodikani takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o‘yinli metodlar talqini, ularning ta’lim tizimida qo‘llanishi, talabalarni kasbiy va metodik rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. O‘yinli metodlar orqali o‘quvchilarni bo‘lajak pedagoglar o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadilar, o‘z hissiyotlarini ifodalaydilar va o‘z dunyoqarashlarini kengaytiradilar. Bu jarayon ular uchun hayot davomida muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va ularni muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lib yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.S. Abdullayeva, A.A. Xoliqov, D.R. Farsaxonova, S.V. Muhammadiyeva, M.V. Sheranova —”Umumiy pedagogika” (pedagogika nazariyasi va pedagogika tarixi modullarini o‘z ichiga olgan darslik), Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
2. I.G.Mamajonov, O.M.Jakbarova —”Umumiy pedagogika”—Omadbek print number one nashriyoti Andijon-2025
3. O.M.Jakbarova “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”- Omadbek print number one nashriyoti Andijon-2026
4. Abdinagim Bekbergenov —”Pedagogika fanlarini o‘qitishda metodlardan foydalanish yo‘llari” – Modern Science and Research, 2023
5. G.X.Abdullayeva —”Boshlang‘ich ta‘limda o‘yin metodikasi” – Samarqand: SamDU, 2022.
6. N.Ishmuxamedova —”Pedagogik texnologiyalar” – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. M.Sharipova —”Zamonaviy darsda o‘yin yondashuvlari” Ilm va taraqqiyot jurnali, 2023.